

ALIBEK RUSTAMIY - MANBASHUNOS OLIM

Nizomiddinov Abbosxon Abdukarim o'g'li
TerDU O'zbek adabiyotshunosligi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada manbashunos, matnshunos, tilshunos Alibek Rustamov ilmiy faoliyati, nazariy qarashlari, o'zbek manbashunosligi va matnshunosligi, navoiyshunoslik sohalari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar: Alibek Rustamov, manbashunoslik, tilshunos, navoiyshunos, tarjimachilik, mumtoz so'z.

Abstract. This article provides information about the scientific activity, theoretical views, contribution to the development of Uzbek source studies and textual studies, and the development of the fields of linguist Alibek Rustamov.

Keywords: Alibek Rustamov, source studies, linguist, linguist, translation, classic word

Абстрактный. В данной статье представлены сведения о научной деятельности, теоретических воззрениях, вкладе в развитие узбекского источниковедения и текстологии, развитии направлений языковеда Алибека Рустамова.

Ключевые слова: Алибек Рустамов, источниковедение, лингвист, языковед, перевод, классическое слово.

Inson o'zining ma'naviy dunyosi bilan boshqa mavjudodlardan ajralib turadi. Har bir kishining insoniylik darajasi ham uning ma'naviy boyligi bilan belgilanadi. Ma'naviy yetuklik insonni xayrli amallarni qilishga undaydi. Shunday ekan, hamma davrda ham xayrli amallar qilgan, o'zidan foydali ilm qoldirgan insonlar doimo barhayot. Ezgulikni hamma har xil olim ilmi bilan, ona yaxshi tarbiyasi orqali qiladi. Ana shunday ezgu amallar qilib, yashab ijod etgan olimlar sirasi navoiyshunos, tilshunos, manbashunos Alibek Rustamovni ham kiritsak xato bo'lmaydi.

Bo'lajak olim 1931-yil Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida xizmatchi oilasida dunyoga keladi. 1955-yil O'rta Osiyo davlat universitetining eron-afg'on filologiyasi tamomlab, ilm yo'liga kirib keladi. Turli yillarda yurtimizning nufuzli oliygohlarida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib, 1995-yili xizmatlariga munosib ravishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylanadi. A.Rustamov qariyb 60 yil davomida ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordi. Taniqli olimning o'zbek tili, matnshunoslik, tarjimashunoslikka oid monogrifiya va risolalari, ilmiy-publististik maqolalari ilm ahliga ma'lum. Tadqiqotlariga e'tibor bersak Hazrat Navoiy ijodiga bo'lgan qarashlari, mehri o'zgacha edi. Buyuk shoir va mutafakkirning bebaho merosini chuqur o'rganishi alohida o'rin tutadi. Jumladan, "Navoiy tilining Grammatik xususiyatlari", "Navoiyning badiiy mahorati", "So'z haqida so'z" kabi kitoblarni yozib, Hazrat Navoiy ijodining yangi qirralarini kashf etdi. Alibek Rustamov ijodiga nazar

solsak, Hazrat Navoiy ijodiga qarashlari o'zgacha bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, olim arab, fors, turk, ingliz va rus tilining bilimdoni edi. Rus tilini esa o'zbek tilini qanday bilsa, shunday bilardi.

Olim ijodi bilan filologiya sohasining hammasida sermahsullik ko'rsatgan. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik sohalarida baravar ilmiy faoliyat olib borgan. Hazrat Navoiydan keyin Zahiriddin Muhammad Bobur va Husayn Bayqaro ijodi ham alohida e'tibor beradi. Husayn Bayqaroning "Risola"si bir necha olimlar tomonidan nashr qilinishga qaramay, 1991-yilda qayta nashr qiladi. Bu nashrning oldingilaridan berilgan izoh va lug'atlari bilan ajralib turadi.

Shuni alohida eslatib o'tish kerakki, Alibek Rustamovning bu ilmiy muvaffaqiyatlari zahirida eron-fors filologiyasini tugatgani, keyinchalik arab tilini puxta o'rganish va qadimgi turkiy tilni teran o'zlashtirishdek katta mehnati bor. Agar olim turkiy, fors va arab tillarini puxta egallamaganida Navoiy asarlarini tilini o'rganish va ilmiy-tadqiqotlarida bunchalik muvaffaqiyatlarga erishmagan bo'lar edi. Chunki Navoiy asarlarining tili o'sha davr o'zbek tili me'yorlariga ko'ra forsiy va arabiy o'zlashmalarga boy, diniy va tasavvufiy g'oyalarga yo'g'rilgan, Qur'on va hadislardan iqtiboslar bilan bezalgan edi. Undan tashqari, Navoiy asarlari mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetish uchun o'sha davr klassik adabiyotining o'ziga xos badiiy vositalari: ilmi bade, ilmi maoniy, ilmi balog'a, ilmi aruz, ilmi qofiya va boshqa badiiy san'atlarni puxta egallash lozim edi. Alibek Rustamov yuqoridagi ilmlarni puxta o'rganib kitoblarida Navoiy ijodini quyidagicha tavsiflaydi.

"Navoiyning asarlari barcha jihatdan nihoyat darajada rango-rangligi bilan ajralib turadi. Ularda voqea, qahramon, tabiat, narsa, buyum, inshoot, makon va zamon ham, tasvir va bayon ham, vazn, qofiya, saj' va badiiy vositalar ham har asarda: har bobda, har faslda, har bayt va har jumlada turlichadir. Shu bilan birga boshqalariga nisbati yo'q na bir bob, na bir fasl, na bir bayt yoki jumla, na bir so'z, na bir ma'no va na bir tovush bor. Voqea va qahramonlarning turliligini, masalan, "Xamsa"da ko'rish mumkin, lekin bu turlilik zidlik va uyg'unlikni o'z ichiga olganligi uchun birlikning turliligidan iborat. Navoiy asarlarida tilga olinmagan tabiiy va sun'iy narsalar, ilmiy tushunchalar juda kam. Shoir qalamiga tushmagan o'lka, manzil, zamon, fasl va vaqt ham yo'q. Uning qofiya, vazn va badiiy vositalarining turli-tumanligini ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, turlilik Navoiyning butun ijodidagina emas, uning har bir asariga va har bir asarining har bir bo'lagiga ham xosdir¹.

Bizga ma'lum bo'ladiki olimga Navoiy ijodini anglash qiyinchilik tug'dirmagan. Filologiya fanlari doktori, professor Suyima G'aniyeva A. Rustamov haqida shunday eslaydi: Aliybeg "Mahbub ul-qulub" haqida har suhbatda bir yangilik aytar edi. Tilga oidlarini ba'zan anglamas, lekin adabiyotga oid fikrlarini maroqlanib eshitar edik. Hamfikir do'st, yaxshi suhbatdosh edik. To'y, tug'ilgan kunlarda birga, musibatlarda dardkash bo'lganmiz. U kamgap edi. Lekin meni Yangiyo'lga olib borganda, uyi va yaqinlarini ko'rsatganda sergap bo'lganidan

¹ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – B. 128.

zavqlanganman. A. Rustamiy Navoiy tili bo'yicha ancha ishlar qildi. Nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. "O'zbek adabiyoti tarixi"ga hammualliflikda maqola yozdik. Hamkorligimizning yoddan chiqmas natijasi — rus tilida "История узбекской литературы" uchun mazkur qismni rus tiliga o'g'irganimda menga yaqindan yordam qildi. 1957-yildan beri muntazam o'tkazib kelinayotgan Navoiy anjumanlariga Aliybeg kelar edi (1962-yil, 6-konferensiya, 1964-yil, 8-konferensiya, 1965-yil, 9-konferensiya, 1970-yil, 14-konferensiya, 1971-yil, 15-konferensiya, 1974-yil, 18 konferensiya va boshqalar)².

Rustamiy ilmiy kitoblar yozishdan tashqari xalqimiz ma'naviyati, o'zligi, tobora yo'qolib borayotgan ma'naviy qadriyatlarga ham bee'tibor emasdi. Xalqimiz o'zligini va ma'naviy qadriyatlarini teran anglab yetishi kerakligini, jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini ta'kidlaydi. Olim bu yo'lda ham bir qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, "Shifo duosi" (1992), "Bismillohning ma'nosi" (1993), "Rustamiy tafsiri. Fotiha surasi" (2004), "Hazrat-i Navoiyning e'tiqodi" (2010), "Hazrat-i Navoiyning "mast-i alast"i" (2012), "Hazrat-i Navoiyning ma'naviy va suvariy sharoblari" (2013), "Hazrat-i Navoiyning ma'naviy olami" (2014) kabi risolalar, "So'z gavhari. "Basmala", "til", "adab", "odob" so'zlari" (2002), "Hazratning diyonati" (2011), "Masnaviy-i ma'naviy"dagi "nay"u "nayiston"ga Jomiyning sharhi" (2007) kabi maqolalar hamda ukalari Botirbek, Karimbek, Saidbek Hasanovlar bilan hamkorlikda tayyorlagan "Alisher Navoiy. Arba'iy" (1991, "Husayn Boyqaro" (1991), "Alisher Navoiy. Siroju-l-muslimiyn" (1993), "Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1993), "Nuri Muhammadiy va Nurnoma" (1996) risolalaridir. Olim keng ilmiy faoliyati bilan o'ziga ilmiy maktab yaratgan edi.

Adabiyotshunoslik fani tarixida turli ilmiy maktablar mavjud bo'lib, ularning aksariyati o'sha maktab asoschisi nomi bilan (akademik Konrad maktabi) yoki o'z yo'nalishi bilan (Struktural poetika maktabi) kabi nomlanadi. O'zbek adabiyotshunosligida ham Fitratning adabiyotshunoslik maktabi, Xodi Zarif folklorshunoslik maktabi mavjud va harakatda bo'lgani har bir mutaxassisga ma'lum. Shuningdek, XX asr adabiyotshunosligida ayrim sohalar bo'yicha Izzat Sulton nomi bilan bog'liq nazariya maktabi, Ozod Sharafiddinov tanqidchilik maktabi, G'ulom Karimov va Aziz Qayumov nomlari bilan bog'liq mumtoz adabiyot va manbashunoslik maktablari haqida adabiyotshunoslikka doir kitoblarda fikrlar aytilgan, ayrim risola va maqolalar yaratilgan. Biroq Aliybeg Rustamiy nomi faqatgina olim yozgan ilmiy asarlardagina aks etib qolmay, balki o'zbek tarixiy tilshunoslik, navoiyshunoslik, manbashunoslik, tarjimashunoslik kabi sohalarga taalluqliki, ustozning bu sohalarda yozgan asarlari ilmiy tizimga solinadigan bo'lsa, uni bevosita "Akademik Aliybeg Rustamiy maktabi" umumiy nomi ostida jamlash mumkin bo'ladi. Akademik Aliybeg Rustamiy asarlarining

² Aliybeg Rustamiy xotirasi: Odamiylik va olimlik fazilatlarini mujassam inson/ mas'ul muharrir A.Samad. – Toshkent: Adabiyot uchunlari, 2014.

ilmiy tasnifini berishga jur'at qilolmasam ham, o'z faoliyatim doirasida domla yaratgan asarlar mutolaasi bilan boglik fikrlarim bilan o'rtokdashishim mumkin³

Xulosa sifatida aytish mumkinki, olim filologiya fanning qaysi sohasiga oid tadqiqot qilsa ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan. Olim uzoq yillik faoliyati bilan o'z ilmiy maktabini yaratdi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Alibeg Rustamiy xotirasi: Odamiylik va olimlik fazilatlari mujassam inson: (xotiralar) / mas'ul muharrir A. Samad. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014.
2. Navoiyning badiiy mahorati: (badiiy adabiyot) / A. Rustamov. – Toshkent : Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
3. Forscha-o'zbekcha o'quv lug'ati: (pedagogika in-t studentlari uchun o'quv qo'll.) / A. Rustamov, K. Karimov, Z. Umarov. – Toshkent: O'qituvchi, 1975.
4. "Xamsa" va o'zbek adabiy tili : [Alisher Navoiyning bebaho "Xamsa"si o'zbek adabiy tilining yangi tub so'zlar bilan boyitganligi haqida] / A. Rustamov // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1986.

³ O'sha asar –108 bet